

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/04.06.2020.Fil.76.04. RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**QOZAQOVA SAYYORA SOBITXON QIZI**

**“BOBURNOMA” ASARI SYUJETI VA KOMPOZITSIYASINING  
STRUKTURAL TAHLILI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Qozaqova Sayyora Sobitxon qizi**

“Boburnoma” asari syujeti va kompozitsiyasining struktural tahlili ..... 3

**Казакова Сайёра Собитхон кизи**

Структурный анализ сюжета и композиции произведения «Бабурнаме» ..... 27

**Kazakova Sayyora Sobitxon qizi**

A structural analysis of the plot and composition of the work “Boburnoma” ..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 57

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/04.06.2020.Fil.76.04. RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**QOZAQOVA SAYYORA SOBITXON QIZI**

**“BOBURNOMA” ASARI SYUJETI VA KOMPOZITSIYASINING  
STRUKTURAL TAHLILI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.4.PhD/Fil6882 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.namdu.uz](http://www.namdu.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Usmonova Oyistaxon Yuldashaliyevna**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Ismoilov Ilyos Abduqayumovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Tojiboyeva Muqaddas Abduraximovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo'qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "8" noyabr soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: (+99869) 228-85-02. Web-sayt: [www.namdu.uz](http://www.namdu.uz), e-mail: [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz), faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2084 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "27" oktabr kuni tarqatildi. (2025-yil "27" oktabr dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.M.Uluqov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**LO'Darvishov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash Raisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.I.Karimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligi XXI asrga kelib badiiy asarni har jihatdan mukammal tahlil qilish muammosini kun tartibiga qo‘ymoqda. Yil sayin yangilanib, ilmiy jihatdan takomillashib borayotgan nazariy metodlar tizimida struktural adabiyotshunoslik tajribalarini amaliyotga tatbiq qilish va bu orqali nasriy va she‘riy asarlarning tarkiblanish tamoyillarini, kompozitsiyasi, syujeti va badiiy obrazlar poetikasini o‘rganish jahon adabiyotshunosligining asosiy markazida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu bois jahon adabiyotshunosligida struktural adabiyotshunoslik, struktural poetika, struktural tahlil tamoyillari va metodlari takomili hamda ularning amaliyotga tatbiqi masalalariga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida XX asrning 60-yillariga kelib badiiy asarga “tirik organizm” sifatida qarash an’anasi yuzaga keldi, “tirik, jonli” badiiy asarni yaxlit bir butun holda tahlil qilish ustuvor tamoyilga aylandi. Shuning uchun ham badiiy asarlar tahlili va tadqiqiga tizimli struktural metodda yondashuv usullarini ishlab chiqishga ehtiyoj yuzaga keldi. Badiiy asarning tarkibiy jihatlarini belgilash va badiiyat hosilasi sathlarini bir-biri bilan bog‘lab turgan adabiy vositalarni o‘rganish, va nihoyat, o‘sha qismlarni o‘zaro tutashtirish jarayonida yozuvchi (adib) amal qiladigan ijodiy qonuniyatlarni aniqlash barobarida asarni shakl va mazmun uyg‘unligi tamoyilida tahlil qiluvchi struktural metod yuzaga keldi, u memuar va badiiy adabiyot namunalari mukammal tadqiq etish imkonini bermoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida milliy merosni izchil o‘rganish, tahlilga tortish, ulardan jamiyat a‘zolari ma’naviyatini yuksaltirish yo‘lida foydalanish adabiyotning ustuvor vazifasiga aylanmoqda, chunki “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham bor”<sup>1</sup>. “Bobolarimizga munosib binolar qurdik. Endi bobolarimizga munosib ilmiy muhit yaratishimiz kerak”<sup>2</sup>. Shu bois mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar asosida o‘zbek adabiyotshunosligida avvaldan ilmiy muomalada bo‘lgan mumtoz adabiy manbalarni tadqiq etish ishlariga katta e‘tibor qaratilmoqda. “Boburnoma” tarkibida mingdan ortiq shaxslar va timsollar mavjudki, tarixiy siymolar xarakteri, ijod namunalari ham qayta tahlilga muhtoj. “Boburnoma” syujeti va kompozitsiyasini tarkibiy jihatdan adabiyotshunoslikning zamonaviy struktural poetika metodi talablari asosida o‘rganish asarning obrazlar olamini tushunish va uning poetikasiga doir ilmiy xulosalar qilishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2017, 21-avgust.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ислом цивилизацияси” марказига қилган ташрифидаги нутқидан // <https://kun.uz/kr/news>, 2021, 29 январь.

mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-sonli "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** "Boburnoma" asarini ilmiy asosda tadqiq etish va tarjima qilish asar yaratilgan XVI asrdan boshlab hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Hozirda qirqqa yaqin tillarga tarjima qilingan "Boburnoma"ning o'ndan ortiq qo'lyozmalari mavjud bo'lib, tarjima va nashrlar shu noyob manbalar asosida amalga oshirilgan. XIX asrda N.Ilminskiy, A.Vamberi, U.Erskin, A.Beverij, N.Samoylovich kabi olimlarning ishlarini sohaga oid ilk tadqiqotlar sifatida e'tirof etish mumkin<sup>3</sup>.

Xorijda J.Leyden, L.U.King, R.M.Kaldekot, F.G.Talbot, S.Leyn-Puul, E.Holden, M.Elfinston, A.de Long-Per, A.J.Klaport, J.Dranjete, Pave de Kurteyl, Shafiqa Yorqin, S.P.Sharma, H.Lemb, U.Tekston, Eyji Mano kabi olimlar "Boburnoma"ni o'rganish va dunyoga tanitishga katta xizmat qildilar.

Markaziy Osiyoda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi dastlab tazkiralarda<sup>4</sup> qayd etilgan bo'lishiga qaramay yangi ilmiy asosda professor Fitratning maqola va majmualari, H.Yoqubov, M.Shayxzoda, V.Zohidov ishlaridan tortib<sup>5</sup> hozirgi kunga qadar jiddiy davom etmoqda. Bobur lirikasi<sup>6</sup> hamda "Boburnoma"<sup>7</sup> asari bo'yicha qator ilmiy maqola va tadqiqotlar yaratilgan bo'lib,

<sup>3</sup> Бобур ва бобурийлар библиографияси. Нашрга тайёрловчи, жамлаб тузувчи ва муаллиф Шокирхон Шодмонхўжа ўғли Рустамхўжаев. – Андижон: Andijon nashriyot-matbaa, 2014. – 484 б.

<sup>4</sup> Нисорий Х. Музакири аҳбоб. – Тошкент: Халқ мероси, 1993. – Б.51; Қайюмов П. Тазкирайи Қайюмий. – Тошкент, 1998. – Б.52.

<sup>5</sup> Ёкубов Х. Улуғ шоир ва адиб // Қизил Ўзбекистон, 1940, 26 декабрь; Шайхзода М. Захириддин Бобир // Гулистон, 1940. – №1; Шайхзода М. Бобир ва Навоий // Қизил Ўзбекистон, 1940, 26 декабрь.

<sup>6</sup> Алиев С. Бобир лирикаси: Филол. фан. номз ... дисс. – Тошкент, 1948. – 171 б.

<sup>7</sup> Джамалов С. О художественных особенностях "Бабурнаме": Дисс. ... канд. фил. наук. – Тошкент, 1961. – 233 с.; Атаджанов Н. Художественный перевод и научное комментирование (на материалах "Бабурнаме"): Дисс. ... канд. фил. наук. – Тошкент, 1978. – 156 с.; Ходжаева Л. Проблемы перевода: Характер, стиль и интерпретация текста "Бабурнаме": Дисс. ... канд. фил. наук. – Тошкент, 1986. – 194 с.; Шукруллаева С.

bu borada V.Zohidov<sup>8</sup>, A.Abdugʻafurov<sup>9</sup>, M.Nuriddinov<sup>10</sup>, R.Vohidov<sup>11</sup>, M.Abdullayeva<sup>12</sup>, H.Qudratullaye<sup>13</sup>, N.Otajonov<sup>14</sup>, A.Ibrohimov<sup>15</sup>, Z.Xolmonova<sup>16</sup>, I.Sulaymonov<sup>17</sup>, D.Xoshimova<sup>18</sup>, X.Barotova<sup>19</sup> va boshqa olimlarning ishlari diqqatga sazovordir.

Oʻzbek adabiyotshunosligida nisbatan yangi metod hisoblangan strukturalizm va uning mohiyati, badiiy asarning ichki strukturasi, asarning yetakchi struktur birliklari A.Rasulov<sup>20</sup>, H.Boltaboyev<sup>21</sup>, I.Yoqubov<sup>22</sup>, M.Xolbekov<sup>23</sup>, S.Meliyev<sup>24</sup>, B.Karimov<sup>25</sup>, Q.Qahramonov<sup>26</sup>, N.Doʻstxoʻjayeva<sup>27</sup> tomonidan oʻrganilgan, biroq Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari syujet va kompozitsiyasi struktural adabiyotshunoslik aspektida monografik tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Oʻzbek adabiyotshunosligining muhim masalalari” mavzu yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** “Boburnoma” asari syujet va kompozitsiyasini struktural metod asosida tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

“Boburnoma” asarini struktural adabiyotshunoslikning ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillari orqali oʻrganish;

asar strukturasi shakl va mazmun uygʻunligi tamoyillari asosida tahlilga tortish;

---

Воссоздание художественного своеобразия “Бабурнаме” в его английских переводах: Дисс. ... канд. фил. наук. – Тошкент, 1989. – 171 с.

<sup>8</sup> Зоҳидов В. Бобурнинг фаолияти ва адабий илмий мероси ҳақида // Шарқ юлдузи, 1958. – №11. – Б.21-28.

<sup>9</sup> Абдугафуров А. Навоий ва Бобур. Буюк бешлик сабоқлари. – Тошкент, 1998. – 184 б.

<sup>10</sup> Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. – Тошкент: Фан, 1974. – 175 б.

<sup>11</sup> Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Тошкент, 1999. – 88 б.

<sup>12</sup> Абдуллаева М.Д. “Бобурнома” ва “Шажараи турк”нинг қиёсий-типологик таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Самакранд, 2004. – 23 б.

<sup>13</sup> Қудратуллаев Х. “Бобурнома”нинг тарихий адабий ва услубий таҳлили (Навоий, Бобур, Хондамир ва Восифий ижодининг қиёсий таҳлили): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1998. – 355 б.

<sup>14</sup> Отажонов. Н. “Бобурнома” жаҳон адабий жараёнида: қиёсий-типологик таҳлил: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994. – 285 б.

<sup>15</sup> Иброҳимов А. “Бобурнома”даги ҳиндча сўзлар тадқиқи: Филол. фан. номз ... дисс. – Тошкент, 2001. – 168 б.

<sup>16</sup> Холмонова З. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 325 б.

<sup>17</sup> Сулаймонов И. И. “Бобурнома”да ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолатининг бадий тасвири: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 274 б.

<sup>18</sup> Хошимова Д. М. “Бобурнома” матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2018. – 275 б.

<sup>19</sup> Barotova X.J. “Boburnoma”da xotin-qizlar obrazi talqini: Filol. fan. falsafa d-ri. ... diss. – Buxoro, 2024. – 176 b.

<sup>20</sup> Расулов А. Бадийлик безавол янгилик. – Тошкент, 2007. – 336 б.

<sup>21</sup> Болтабоев Х. Теранлик // Адабиётимиз фаҳри. – Тошкент, 2007. – Б.202-214.

<sup>22</sup> Ёқубов. И. Структурал поэтика имкониятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. – №3. – Б.3-12

<sup>23</sup> Холбеков М. Ролан Барт ва структур адабиётшунослик // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – №2. – Б.23-34.

Холбеков М. Матн, интерматн, интерматнлилик // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – №6. – Б.32-39.

<sup>24</sup> Мелиев С. Структурализм ва структурал таҳлил ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008. – №2. – Б.12-20.

Мелиев С. Янги танқид: Ғарб адабиётшунослигидаги бир оқим ҳақида // Шарқ юлдузи, 2010. – №4. – Б.17-24.

<sup>25</sup> Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа уйи, 2016. – 364 б.

<sup>26</sup> Қаҳрамонов Қ. Адабий танқидда структур метод талқини // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – №5. – Б.27-35.

<sup>27</sup> Дўстхўжаева Н. Ўзбек сеҳрли эртақларининг структурал таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999. – 127 б.

“Boburnoma”ning murakkab syujetidagi voqealar takomilini muallif obrazi nuqtayi nazari negizida badiiyat qonuniyatlariga mutanosib tarzda yoritish;

asar kompozitsiyasini struktural mukammallik jihatlarini aniqlash va Boburning badiiy mahoratini tavsiflash;

“Boburnoma” asarining syujeti va kompozitsion strukturasida tarixiy obrazlar tizimining o‘rnini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida “Boburnoma” asarining S.Hasanov tomonidan e’lon qilingan 2002-yilgi nashri olindi va zarur o‘rinlarda yapon olimi E.Mano tomonidan tayyorlangan tanqidiy matnga murojaat etildi.

**Tadqiqotning predmetini** “Boburnoma” asarining syujeti va kompozitsiyasining struktural jihatlarini va birliklari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda struktural poetik, struktural-semantik, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“Boburnoma” asarining struktural jihatdan mukammallashuvidagi an’ana va tendensiyalar, memuar asar kompozitsiyasining shakllanishida muhim o‘ringa ega tarixiy davr struktural poetika nazariy qonuniyatlari va tamoyillari asosida ilmiy-badiiy, ijtimoiy-siyosiy, maishiy-axloqiy, ma’rifiy-ma’naviy va harbiy-jangovar muhitning omillari va sabablari aniqlangan;

asar syujetini tashkil etgan voqealarning joylashish o‘rni, tartibi, ketma-ketligidagi uzviylik takomili, tarixiy hodisalarning bir-biriga mohirona bog‘lanish usullari, ular orqali muallif dunyoqarashi, badiiy dunyosi va ilmiy qarashlarining yuzaga chiqishi struktural tahlil orqali dalillangan;

“Boburnoma”ning tarkiblash va tartiblash kombinatsiyalaridagi o‘ziga xoslik, uslubiy betakrorlik va alohidalik belgilariga asar kompozitsiyasini struktural talablarga muvofiqlik darajasi, tarixiy voqealardagi ishtiroki orqali tarixiy shaxslarga hukmdor va shoir pozitsiyasida tura olgan Bobur munosabati, uning falsafiy mushohadalari, badiiy, ilmiy va harbiy tafakkuri, tajribasi, amaliy imkoniyatlari bevosita bog‘liqlik asosida isbotlangan;

asar obrazlar tizimi tarixiy shaxslarning davrga, jamiyat a’zolari va davlat arboblari munosabatlaridagi insoniy, ma’naviy-axloqiy, harbiy, ilmiy va iqtisodiy-siyosiy dunyoqarashining umumbashariy tamoyillarga muvofiqlik va ziddiyat ko‘rinishlarining syujet va kompozitsiya qurilishida tutgan o‘rni, shaxs portreti tasviri ifodalari, ularning aniqlik darajasi tarixiylik va zamonaviylik nuqtayi nazaridan ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o‘zbek mumtoz adabiyotidagi memuar asar – “Boburnoma”ning tuzilmaviy struktural jihatlarini o‘z yaratilish davridagi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy, harbiy-iqtisodiy, maishiy-axloqiy va diniy omillarga bog‘liq voqelik jarayonlari natijasida yuzaga kelganligi asoslangan;

tarixiy davlatchilik tarixi va boshqaruv ta’limotlari bilan birga ularni harakatga keltiruvchi shaxslar o‘rni va mavqeyi davr ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy qarashlarining faktik jamlanmasi bo‘lgan tarixiy-badiiy asar “Boburnoma”ning badiiyati, tarixiy-madaniy ahamiyati bugungi kun jarayonlari bilan bevosita aloqadorligi yoritilgan;

“Boburnoma” asarining syujet va kompozitsiyasini tahlil qilish orqali to‘plangan manbalar, qo‘yilgan masalalarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan tahliliy xulosalar amaliy tomondan adabiyotshunoslik tarixidagi shaxslar, voqeliklar tarixiy-memuar asar o‘rganilishida ishonchli ma’lumotlar berishi ko‘rsatilgan;

oliy ta’limda o‘qitiladigan “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Badiiy tahlil asoslari” kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishining amaliy ahamiyati ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyani shakllantirishda obyektga yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan badiiy manbaning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar struktural tahlil usullari vositasida chiqarilgani, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, izlanish xulosalari o‘zbek mumtoz adabiyoti, adabiyot nazariyasi, badiiy tahlil, nazariy poetika mavzusiga oid tadqiqotlarda, janr, syujet, kompozitsiya, obraz, detal, uslub singari sof badiiy komponentlar spetsifikasini o‘rganishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati gumanitar yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari uchun “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiyot tarixi”, “Badiiy asar poetikasi”, “Tarixiy va nazariy poetika”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanlari va o‘quv kurslari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar tayyorlashda, ixtisoslik fanlari nazariy bazasini shakllantirishda amaliy vosita ekanligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Boburnoma” asari syujeti va kompozitsiyasining struktural tahlili” mavzusidagi tadqiqot asosida olingan natijalar quyidagi ishlarda joriy etilgan:

“Boburnoma” asari struktural poetika talablari asosida o‘rganilib, u orqali asar matni yaratilgan davr va uning ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, maishiy-axloqiy, ma’rifiy-ma’naviy muhiti, an’ana va tendensiyalari qonuniyatlariga asoslanib, asarning kompozitsiyasini mukammal tarzda yuzaga chiqargan struktural qurilishi, asar strukturasining tarkiblanishi, voqeliklar tartibi va ularning badiiy ifoda ilmiy-amaliy tamoyillari aniqlangan hamda asar syujetidagi voqealarning joylashish o‘rni, badiiy bayon etilgan voqealardagi syujetlarning uzviy ketma-ketlik takomili, bir-biriga mohirona bog‘langanlik usul va yo‘llari hamda ular orqali muallif dunyoqarashi, badiiy dunyosi va ilmiy qarashlari struktural tahlil asosida dalillanganiga doir va ma’lumotlardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan PF-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” bo‘yicha amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 20-

iyundagi №01/4-2644-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi fikr-mulohazalar bilan boyishiga erishilgan;

asar kompozitsiyasini struktural metod talablariga muvofiqlik darajasi, tarixiy voqealarda bevosita ishtirok etgan tarixiy shaxslar, ularga shoh, shoir, sarkarda va adib, olim Bobur shaxsining individual munosabati, uning falsafiy mushohadalari, badiiy, ilmiy va harbiy tafakkuri daraja hamda imkoniyatlari ko'lamining kengligi "Boburnoma" asari syujeti va kompozitsiyasi strukturasini shakllanishiga bog'liqligi, tarkiblash va tartiblash kombinatsiyalaridagi o'ziga xoslik, uslubiy betakrorlik va alohidalik belgilari isbotlangan hamda "Boburnoma" asaridagi obrazlar tizimining struktural tahlil etish orqali tarixiy shaxslarning davrga, jamiyat a'zolari va davlat arboblari bo'lgan munosabatlaridagi insoniy, ma'naviy-axloqiy, harbiy, ilmiy va iqtisodiy-siyosiy dunyoqarashining umumbashariy tamoyillarda ijobiylik va unga zidlik ko'rinishlarining asar strukturasini shakllanishida – syujeti va kompozitsiyasi qurilishida tutgan o'rni, shaxs portreti tasvirlarining salmog'i va aniqlik darajasi ochib berilgani bilan bog'liq fikr va xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot" "Millat va ma'naviyat", "Adabiy jarayon", "Jahon adabiyoti" nomli eshittirishlarida foydalanilgan ("O'zbekiston" milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 24-iyundagi №05-09-1011-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, eshittirishlarning ilmiy saviyasi ortgan hamda o'zbek adabiyotida struktural tahlil manbalari, ularni tahlil qilish, syujet va kompozitsiyasini struktural tahlil asosida yoritish hamda xulosalarining amaliy ahamiyati o'rganilganligi ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, undan 5 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajman 132 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning 1-bobi "**Struktural adabiyotshunoslikning nazariy masalalari va "Boburnoma" asariga struktural yondashuv**" deb nomlangan bo'lib, ushbu bob 3 fasldan iborat. 1-bobning birinchi fasli "**Struktur**

**adabiyotshunoslik ildizlari va uning o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi”** deb nomlanib, ushbu faslda struktural metodning ildizlari, tahlil imkoniyatlari va o‘zbek adabiyotshunosligidagi o‘rni haqida so‘z boradi.

Badiiy asarni har jihatdan puxta tahlil qilish zarurati turli xil metodlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan bo‘lib, ana shunday tahlil turlaridan biri struktural metoddir. Struktural metod badiiy asarning ichki qurilishi, undagi qismlar va ularning o‘zaro aloqalari, qismlarning butunlikka birikish yo‘llarini, xullas, asarning tashkillanishini o‘rganadi. Struktural tahlil usuli aniq fanlardagi tahlil yo‘nalishini so‘z san’ati namunalariiga tatbiq etish asosida yuzaga kelgan bo‘lib, o‘zbek adabiyotshunosligida nisbatan kam o‘rganilgan va ommalashmagan usullardandir.

“Struktural metod” – tarkibiy o‘rganish asosiga qurilgani uchun dastlab o‘zi yaxlit badiiy asarning tarkibiy jihatlarini belgilaydi, ular ilmiy tilda “sath”lar deb yuritiladi. So‘ngra o‘sha sathlarni bir-biri bilan bog‘lab turgan adabiy vositalar o‘rganiladi, va nihoyat, o‘sha qismlarni o‘zaro tutashtirish jarayonida yozuvchi (adib) amal qiladigan ijodiy qonuniyatlarni aniqlaydi. Tahlil obyekti badiiy matn bo‘lsa ham bu o‘rinda tadqiqotchini o‘sha matnning yuzaga kelish sabablari yoki badiiy asarning yozilish tarixi qiziqitirmaydi, balki tugallangan asar yoki matn bilan ish ko‘riladi. Ikkinchidan, kitobxon tomonidan o‘sha asarni qabul qilishdagi ekspressiv yoki impressiv holatlar hisobga olinmaydi, balki o‘sha matn tahlilida amal qilinadigan usul, uslub va qonuniyatlar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Rolan Bart badiiy asarning mazmun-mohiyatini ochib berishda muallifning siyosiy qarashlari, diniy e‘tiqodi, etnik mansubligi, psixologiyasi, tarjimayi holi va shaxsiy xislatlari kabi jihatlariga tayangan tanqidiy metodni qoralar ekan, asosiy e‘tiborni matnni “tushuntirib berish”da muallifning tajribasi va qiziqishlari hal etuvchi ahamiyatga ega ekanligini yoqlab chiqadi. Rolan Bartning fikricha, ushbu metod aniq va qulay, biroq amalda ishonchsiz va talay kamchiliklarga ega: “Matnni muallif yozdi” deb uni shunga mos ravishda talqin qilish “matnga cheklov qo‘yish” demakdir. Matnni to‘g‘ri talqin qilish maqsadida o‘quvchilar badiiy asarni muallifga e‘tibor bermagan holda o‘qib chiqishlari lozim”<sup>28</sup>. Shubhasiz, har bir matn bir nechta qatlam va ma‘nolardan iborat. “Matn – shaxsiy tajribadan emas, balki behad ko‘p madaniyatlardan olingan so‘zlardan to‘qilgan mato”, – deb Bart matn va mato o‘rtasida o‘xshashlik jihatlarni aniqlaydi<sup>29</sup>. Matnning asosiy ma‘no-mazmuni yozuvchining “ishtiyoq”i yoki “ta‘b”iga emas, o‘quvchilar taassurotiga bog‘liqdir.

Strukturalizm va struktur adabiyotshunoslik mohiyatini tashkil qilgan matn muammosi talqinini Y.Lotman qarashlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Matn strukturasi – bu matn mazmunining namoyon bo‘lish shakli bo‘lib, unga muayyanlik, qat‘iy tartib, qismlarga bo‘linish va yaxlitlik xosdir. Tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘lanishi jihatidan matnlar oddiy, murakkab, o‘ta murakkab kabi turlarga ajratiladi. Shuningdek, matnning ichki va tashqi strukturasi ham kuzatiladi.

<sup>28</sup> Барт Р. Смерть автора / Барт Р. Избранные работы: Семиотика. Поэтика / Пер. с фр., вступ. ст. и коммент. Г.К. Косикова. – М.: Прогресс, 1989. – 386 с.

<sup>29</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.385.

Matn strukturasi negizini tashkil qiluvchi tamoyillar sifatida:

- a) umumiy ma'noni tashkil etuvchi tamoyil;
- b) muallifning badiiy niyati;
- d) muallif obrazi ko'rib chiqiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida strukturalizm va uning mohiyati, badiiy asarning ichki strukturasi, asarning yetakchi struktur birliklari xususida I.Yoqubovning "Struktural poetika imkoniyatlari"<sup>30</sup>, A.Rasulovning "Struktura va strukturalizm"<sup>31</sup>, S.Meliyevning "Strukturalizm va struktural tahlil haqida" va "Yangi tanqid: G'arb adabiyotshunosligidagi bir oqim haqida", M.Xolbekovning "Rolan Bart va struktur adabiyotshunoslik"<sup>32</sup>, "Matn, intermatn, intermatnlilik", Q.Qahramonovning "Adabiy tanqidda struktur metod talqini"<sup>33</sup>, B.Karimovning "Struktural metod"<sup>34</sup>, M.Farmonovanning "Badiiy matnning o'ziga xosligi (strukturalistik talqinda)"<sup>35</sup> kabi maqolalari e'tiborga molik. Mazkur maqolalarda strukturalizm va uning ayrim nazariy muammolari haqida so'z yuritiladi. Har bir muallif maqolasida strukturalizm va struktural metodning o'ziga xos jihatlari, keng va tor ma'nolari ilmiy asosda sharhlangan, shuningdek, strukturalizm tushunchasi, uning falsafiy, ilmiy, badiiy-estetik hodisa sifatidagi xususiyatlari tadqiq etilgan.

Struktural tahlilning mohiyati muayyan asarning qaysi zamon, qanday tarixiy yoki mafkuraviy sharoitda yaratilganidan qat'i nazar, uning matnidan kelib chiqib talqin etilishi ayni shu asarning an'anaviy talqinlaridan mutlaqo o'zgacha xulosalar chiqarilishi bilan izohlanadi.

Bobning "**Mumtoz asarlarni struktural tahlil qilish tamoyillari**" nomli ikkinchi faslida badiiy asar, badiiy matn tushunchasi, mumtoz matnlarning strukturasi hamda tahlil tamoyillari haqida fikr yuritiladi.

Har qanday badiiy matn bu oliy darajadagi badiiy asardir, ammo har qanday badiiy asar matn bo'lolmaydi. Struktural tadqiq ayni shu farqlar asosida chinakam matnni tanlab oladi va uni fazoviy kenglik o'lchamlarida tahlil qiladi. Milliy adabiyotimizga struktural tahlil nazari bilan yondashish bizga asl durdona badiiy boyliklarni saralash, millat tafakkurini har tomonlama yetuk asarlar bilan boyitish, ularning zamon va makonga bo'ysunmasdan abadiy yashay olish imkoniyatini beradi. Struktural tahlil doirasida badiiy matn asarning ma'lum adabiy tur, adabiy janrga mansubligini ifodalovchi muayyan ta'rif va mavjud qoliplangan qoidalarga bo'ysunmaydi, u an'anaviy yondashuvni sindirib tashlaydi. Badiiy matn obraz, janr yoki qandaydir adabiy muammo bo'yicha tahlil qilinmaydi. Bu matnning hal qiluvchi xususiyati hisoblanadi. Ayni shu sabab ham mukammal matn barcha zamon kitobxonlari tomonidan o'ziga xos tarzda, har safar yangicha qarash va talqinlar bilan qabul qilinaveradi. Badiiy matn hech qanday qoliplarni tan olmagan sababli makon va zamon uzra cheksizlikda yashayveradi. Struktural tahlil ilmiy

<sup>30</sup> Ёқубов. И. Структурал поэтика имкониятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. – №3. – Б.37.

<sup>31</sup> Расулов А. Бадийлик безавол янгилик. – Тошкент, 2007. – Б.29.

<sup>32</sup> Холбеков М. Ролан Барт ва структур адабиётшунослик // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – №2. – Б.23-34.

<sup>33</sup> Қахрамонов Қ. Адабий танқидда структур метод талқини // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – №5. – Б.27-35.

<sup>34</sup> Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа уйи, 2016. – 364 б.

<sup>35</sup> Farmonova M. Badiiy matnning o'ziga xosligi (strukturalistik talqinda) // Scientific progress, 2021. – №5. – Б.63.

tafakkurning tadrijiy pog‘onasi sifatida adabiyotshunoslikda badiiy asardan badiiy matn sari qadam tashlash uchun asosiy omildir.

Mumtoz matnlar boshqa matnlar qurshovida, ular bilan o‘zaro ta’sir, o‘zaro bog‘liqlik, o‘zaro almashinuv, o‘zaro boyitish, bir-birini taqozo etish, bir-biriga singib ketish doirasida harakatlanadi. Mumtoz matnlarning struktural tahlili asarlarning an’anaviy tahlilidan farq qilgan holda, matn ichiga kirib va uning strukturasi orqali anglanayotgan fikrning konkretlashuviga xizmat qiladi.

Badiiy matn tarkibini izchil o‘rganish va badiiy matn tarkibidagi ichki va tashqi jihatlarni tadqiq qilish, matnning ichki qurilishi, shakl va mundarija unsurlarini aniqlash matn strukturasi aniqlashdagi dastlabki ishlardandir. Shuningdek, mundarija tarkibi – mavzu, g‘oya, muammo va badiiy shakl element (unsur)lari – obraz, syujet, kompozitsiya va badiiy nutqni tahlil qilish, har bir poetik elementning badiiy asar tarkibidagi o‘rnini aniqlash zarur bo‘ladi.

Bobning **“Boburnoma” asari strukturasi** nomli uchinchi faslida “Boburnoma” asarining ichki va tashqi strukturasi, o‘ziga xos jihatlari, tarkiblanishi yoritilgan.

“Boburnoma” asari struktural tahlil imkoniyatlariga to‘liq mos kela oladigan yirik nasriy asar, shuningdek, o‘zbek adabiyotining nodir yodgorligi hisoblanadi. “Boburnoma”ning asosiy tasvir mavzuyi tarixiy voqealardir. Bobur voqealarni shunchaki sanab o‘tish yoki ular haqida ma’lumot berish bilan cheklanib qolmaydi. U tarixiy voqealar manzarasini, tarixiy shaxslarning tashqi va ichki qiyofasini mohirona tasvirlab, yorqin va ajoyib tabiat lavhalarini betakror bo‘yoqlar bilan ifodalab beradi. Shuningdek, muallif maroqli va jozibali badiiy uslub bilan turli xil sarguzashtlarni, rivoyat va latifalarni hikoya qiladi, xalq hajviyoti, maqollari va ta’birlari, she’riy parchalar bilan o‘z asarini bezaydi. U turli xildagi badiiy uslub va til vositalaridan o‘rinli foydalanadi.

“Boburnoma”dagi voqealar turli vaziyatlarda va ziddiyatlar orqali rivojlanib boradi. Ular bir-biri bilan ana shu voqealarda bevosita ishtirok etgan Bobur siymosi orqali bog‘lanadi, o‘ziga xos kulminatsiya va yechim kasb etadi. Mana shu xususiyatlari bilan “Boburnoma” kitobxonni zavq va hayajonga soladi, uni o‘ziga butunlay maftun etadi.

Haqiqatan ham, akademik V.V.Bartold aytganidek, “Boburnoma” faqat siyosiy kurashlar hujjatigina bo‘lib qolmay, XV asrdayoq haqqoniy ravishda turkiy nasrning mumtoz realistik namunasi deb tanilgan yodgorlikdir”<sup>36</sup>.

Asar strukturasi belgilaydigan omillardan biri voqealarning xronologik jihatdan joylashtirilishidir. Asardagi voqealar davr jihatdan 35 yilni qamrab oladi, ya’ni Boburning taxtga chiqishi bilan boshlanib, vafotigacha bo‘lgan voqealar tasviri beriladi, lekin bu yillardagi voqealar tasvirida ham uzilishlar bor.

Asardagi voqealar zanjiri ketma-ketlikda tasvirlanishi asar strukturasi o‘ziga xos ahamiyatga ega. “Boburnoma” asari voqealar geografiyasi jihatidan ham o‘ziga xos tarzda tashkillashtirilgan. Asar struktura jihatdan 3 katta qismga

---

<sup>36</sup> Бартольд В. В. История культуры мусульманства. – Санкт-Петербург, 1918. – С.86.

bo‘lingan: Farg‘ona, Kobul, Hindiston. Har bir qismdagi voqealar muallif nazarda tutgan mezonlar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, muallif-qahramon hayotining ushbu joy bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarini aks ettirgan, lekin ba‘zi o‘rinlarda voqealar xronologiyasida uzilishlar, ortga qaytishlar uchraydi. Bu muallifning asarni bir vaqtning o‘zida yozmaganidan, muallif hayotining bir tekisda kechmaganligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning **“Boburnoma” syujeti va kompozitsiyasidagi o‘ziga xosliklar**” nomlangan 2-bobning birinchi fasli **“Boburnoma” syujeti va tavsiflash usullari**” deb nomlanib, unda asar syujeti struktural metod talablari asosida tahlilga tortilgan.

“Boburnoma” syujeti juda murakkab, bir necha tarmoqqa ega. “Boburnoma”da voqealar mantig‘i yetakchilik qiladi, sababi asar sarguzasht xarakterida. Asar voqealari Boburning taxtga chiqish voqeasi bilan boshlanadi: *“Tengri taoloning inoyati va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati birlan seshanba kuni ramazon oyining tarix sekkiz yuz to‘qson to‘qqizda Farg‘ona viloyatida o‘n ikki yoshda podshoh bo‘ldum”*<sup>37</sup>. Bundan bilinadiki, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘n ikki yoshida Farg‘ona taxtiga o‘tirgan. Bu voqea hijriy 899-yil ramazon oyining beshinchi kuni yuz bergan. Vaqt milodiy hisobda 1494-yil 9-iyun seshanba kuniga to‘g‘ri keladi. Bu orqali syujet voqealarining boshlanish nuqtasi: joyi va vaqti muallif tomonidan asar boshlanmasida aytib ketilmoqda. Yosh Boburning hayot kundaligi va biz tadqiq etayotgan “Boburnoma” matni shunday kirish so‘z bilan boshlanmoqda. Shundan so‘ng Farg‘ona viloyatining joylashuvi, chegaralari, xalqi, katta shaharlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltiriladi. Ya‘ni keyingi voqealarning sodir bo‘lish joyi bilan kitobxon batafsil tanishtiriladi. So‘ng 39 yoshida Axxi qo‘rg‘onida jordan yiqilib halok bo‘lgan Umarshayx mirzo voqeasi bayon qilinadi. Aynan shu voqeadan Boburning mashaqqatlarga to‘la hayoti tasviri boshlanadi. Asar voqealari davomida taxt mojarolari, Boburning Samarqand taxtini egallashi, Andijondagi fitnalar, Kobul va Hindiston safarida kechgan voqealar qalamga olinadi.

“Boburnoma” tarixiy mazmunda bo‘lgani sababli hayotiy-tayyor syujetlar asosida yaratilgan, shu sababli ham bu asar realistik nasrning eng yetuk namunasi sifatida baholangan. Voqealar ketma-ket sodir bo‘lganligi uchun xronikal syujet deya olamiz. Asarda syujet unsurlaridan hisoblangan ekspozitsiyaning o‘rni juda ahamiyatli. Deyarli har bir voqea oldidan muallif batafsil tushuntirish beradi. Muallif qahramon voqealarning boshlanish nuqtasini o‘ziga xos uslubda yoritadi:

1. Joy tasviri (Farg‘ona viloyati va qasabalari tasviri).
2. Shaxs tasviri (Umarshayx mirzo va Sulton Ahmad mirzo portreti).
3. Voqea sababi (Umarshayx mirzoning vafoti).
4. Voqea bayoni (Boburning taxtga chiqishi va jang tafsilotlari).

Asarni tahlil qilish mobaynida quyidagi strukturani aniqladik:

---

<sup>37</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.34.

Jt+Sht+Vs+Vb ya'ni, joy tasvirlanadi, shaxs tasvirlanadi, voqea sababi keltirilib, so'ng voqea bayon etiladi. Bunday holatga asarning boshqa qismlarida ham guvoh bo'lamiz. Ushbu ma'lumotlar asar strukturasi alohida o'ringa ega. Sababi asarda eng ko'p tilga olingan nomlar ham joy bilan bog'liqdir, chunki muallif qahramon o'z zamonasi va davriga xos bo'lgan hududlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va o'sha joylar bilan bog'liq xotiralarga ega. Bobur nafaqat joy nomini keltiradi, balki joy bilan bog'liq urf-odat, nomlanish sabablari, mashhur tomonlari, mevasi, taniqli insonlarini ham aytib o'tadi. Ularga xolisona munosabatini ham bildirib ketadi.

Bilamizki, badiiy asar syujetida tugun alohida ahamiyatga ega. Tugun o'quvchini asar ichkarisiga yetaklaydi. "Boburnoma" voqealari shu darajada jadalki, buni asardagi tugunlar sonining ko'pligi bilan izohlash mumkin. Sababi bosh qahramon, ya'ni hikoyachi qahramon hayoti hamisha alg'ov-dalg'ovlarga to'la bo'lgan. Asardagi birinchi tugun Umarshayx mirzoning o'limi. Aynan shu voqea tufayli asarga Bobur shaxsi kirib keladi, uning alg'ov-dalg'ovlarga to'la hayoti aynan shu voqea sabab boshlanadi. Boburning hukmdorlik faoliyati bilan bog'liq hodisalardan voqealar rivojlanib boradi. Dastlab, Samarqandga intilish, shu intilish sabab Andijondan ayrilish, so'ng har ikki yurtdan ham mahrum bo'lib, Kobul, Hind mamlakatlariga yuz burish – bular voqealar zanjirining asosini tashkil qiladi.

"Boburnoma" voqealarini kuzatish jarayonida bir nechta kulminatsion nuqtalarni ko'rish mumkin. Xususan, Boburning o'limdan qolish lavhasi. Bunday holat juda ko'p bor yuz beradi. Dastlab, Samarqandda 100 kun podshohlik qilgan paytlari bir o'limdan qolgan bo'lsa, so'ngra sarson-sargardonlikda yurgan kezlari ana shunday holat kuzatiladi. Bu safar ham qahramonimiz bir o'limdan qoladi. Hikoyachi qahramon tilidan aytib berilgan bu voqealar har qanday o'quvchini zo'r hayajonga soladi. Endi buyog'i nima bo'larkin, deya o'ylantiradi. Voqealar zanjiridagi ushbu voqea Boburning Kobul tomonlarga bosh olib ketishiga sabab bo'ladi. Eng asosiy kulminatsiya Malika Bayda tomonidan Boburning zaharlanish voqeasi hisoblanadi.

Syujet voqealari asosan, Andijon, Samarqand, Toshkent, Xuroson, Kobul va Hindistonda bo'lib o'tadi.

Asarda portret va peyzajning o'rni nihoyatda katta. Bu asarning badiiyligini ta'minlaydigan jihatlardan bo'lib, "Boburnoma"da 6 obrazning mukammal portreti beriladi. Bular:

1. Umarshayx mirzo.
2. Sulton Ahmad mirzo.
3. Sulton Mahmud mirzo.
4. Xisravshoh.
5. Boysunqur mirzo.
6. Husayn Boyqaro. Shuningdek, deyarli har bir obrazga yo'l-yo'lakay bo'lsa-da chizgi berib ketiladi.

“Boburnoma”da tabiat tasviri aks etgan lavhalar juda ko‘p. Izzat Sulton ta’biri bilan aytganda, tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan bo‘lib, asarning g‘oyaviy, estetik quvvatini oshiradi<sup>38</sup>. Yozuvchi tabiat lavhalarini chizish bilan o‘zining tabiatga munosabatini ifodalaydi. “Boburnoma”da asar voqealari bo‘lib o‘tayotgan joy manzaralari ham mohir rassomlardek tasvirlanadi. Shuningdek, ayrim joy nomlarining kelib chiqish etimologiyasi ham aytib o‘tiladi. Xususan, *“Xo‘jand bila Kandibodom orasida bir dashte tushubtur, Hodarveshg‘a mavsumdur. Hamisha bu dashtta yel bordur. Marg‘inong‘akim, sharqidur, hamisha mundin yel borur. Xo‘jandg‘akim, g‘arbidur, doyim mundin yel kelur: tund yellari bor. Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo‘lukub, bir-birini topolmay “Ho darvesh”, “Ho darvesh” deya-deya tamom halok bo‘lurlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar*<sup>39</sup>. Ko‘rinadi, Bobur joy nomini tasvirlash bilan birgalikda, joy nomining kelib chiqishi va xosiyati haqida ham tushuntirish berib o‘tadi. Asarning syujet strukturasi o‘ziga xos qurilish va mantiqqa egaligini syujet elementlarining joylashuvi va syujet voqealarining berilishida ham ko‘zga tashlanadi.

Tadqiqotning 2-bobi ikkinchi fasli **“Boburnoma” kompozitsiyasining struktural tahlili**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu faslda asar matnidagi kompozitsion vositalar va ularning o‘zaro birikishi natijasida hosil bo‘lgan mushtarakliklar haqida so‘z boradi.

Badiiy asarni qurilish nuqtayi nazaridan tekshirayotganda ikki turdagi strukturani farqlash zarur bo‘ladi: sirtqi va ichki struktura. Aynan ushbu tajribani “Boburnoma” kompozitsiyasiga nisbatan ham tatbiq etish mumkin. Badiiy asar qaysi janrda yozilmasin, ma’lum bo‘laklardan tashkil topgan bo‘ladi. Ushbu bo‘laklar aslida tashqi kompozitsiya elementlari hisoblanib, badiiy asardagi voqea va his-tuyg‘ular harakati hamda syujet rivojida muhim rol o‘ynaydi. Bu badiiy asar kompozitsiyasining tashqi strukturasi. Asardagi voqealar rivoji undagi u yoki qahramon xatti-harakatidagi qonuniy aloqadorliklar majmuyi bo‘lib, bu badiiy asarning ichki kompozitsion strukturasi sifatida baholanadi. Badiiy asarning ichki kompozitsion strukturasi, asosan, mazmunga taalluqlidir.

Biz tahlilga tortgan “Boburnoma” asari ichki va tashqi kompozitsion strukturasi o‘ziga xos bo‘lgan asardir. Bobur o‘zining “Boburnoma” asari bilan O‘rta Osiyo tarixida, nafaqat O‘rta Osiyo, balki jahon tarixida yangi bir janrga asos solgan, shu sababli ham “Boburnoma” va uning janr xususiyatlariga bag‘ishlangan ko‘plab izlanishlar olib borilgan va qator fikrlar bildirilgan. Bu borada yozuvchi, adabiyotshunos, tilshunos olim Pirimqul Qodirov ham asarning chuqur o‘ylab tuzilgan kompozitsiyasi borligini ta’kidlagan holda “Boburnoma”ni “nasriy Shohnoma” deb atash mumkinligini aytadi. Asar voqealarining o‘zaro mutanosiblikda tasvirlanishi yuqoridagi fikrlarni dalillaydi.

Bu “roman-epopeya” 3 katta qismdan iborat.

<sup>38</sup> Izzat Sulton. Adabiyet nazariyasi. – Toshkent: Ukituvchi, 1986. – B.188.

<sup>39</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Toshkent: Sharq, 2002. – B.36.

1. Birinchi qism Farg‘ona deb nomlanib, bu qismda asar voqealari tasvirlangan 10 bo‘lim keltiriladi. Bu qism voqealari 1494-yil, ya‘ni Boburning taxtga chiqishi bilan boshlanib, 1503-yil, ya‘ni Farg‘ona viloyatida sarson-sargardonlikdagi hayoti tasviri bilan yakunlanadi. Ko‘rinadiki, bu qism voqealari muallif-qahramon hayotining 9 yilini qamrab oladi.

2. Ikkinchi qism Kobul deb nomlanib, bu qismdagi voqealar 7 bo‘limda tasvirlanadi. Kobul viloyati tasviri bilan boshlangan voqealar Hindiston safariga otlangan qahramon orzusi bilan yakunlanadi va 1503-1520-yil voqealari tasvirini o‘zida aks ettiradi. Bu muallif-qahramon Bobur hayotining 17 yilini qamrab oladi.

3. Asarning yakuniy qismi Hinduston deb nomlanib, bu qismdagi voqealar esa 5 bo‘limda bayon etiladi. Bu qism oradagi voqealar tasvirida uzilishlar bo‘lganligi sababli 1525-yil voqealari tasviridan boshlanadi va 1529-yil voqealari tasviri bilan yakunlanadi. Bu muallif-qahramon Bobur hayotining atigi 4 yilini qamrab oladi.

Har bir bo‘limda keltirilgan voqealar asosiy qahramon Bobur siymosi orqali tutashadi.

Asar kompozitsiyasida qahramon ruhiyatining kaliti sifatida berilgan Boburning o‘z she‘rlari va boshqa shoirlarning asarlaridan keltirilgan she‘riy parchalarning o‘rni kattadir.

Keltirilgan she‘riy parchalar muallifning turli maqsadlarini yoritishga xizmat qilgan bo‘lib, asar kompozitsiyasi va syujetida ularning alohida o‘rni bor. Jumladan, ayrimlari biror voqea-hodisa sanasini aniqlash vazifasini bajaruvchi ta‘rix (janr) sifatida yaratilgan bo‘lsa, ayrimlari ba‘zi ijodkorlar haqidagi ma‘lumotlarni tasdiqlashga xizmat qiladi. Ayrimlari Bobur she‘rlarining yaratilish tarixi bilan bog‘liq. Shoirning o‘sha asar dunyoga kelgan paytidagi ruhiy holatiga, tuyg‘ular olamiga bizni olib kiradi. Bu esa o‘z navbatida asarning ta‘sir kuchini oshiradi. Shoirning ijodiy san‘atxonasi, ijodiy laboratoriyasi bilan o‘quvchini tanishtiradi. Ayrim she‘rlar esa alloma ijodkorlar merosidan “Boburnoma” muallifi fikrlarini dalillash, asoslash uchun va yoki ibrat, hikmat sifatida keltiriladi. Bunday she‘riy parchalar asarning 78 sahifasida uchraydi. Jami 324 misrani tashkil etadi<sup>40</sup>. Ular janr nuqtayi nazaridan ham rang-barang. Ushbu she‘riy parchalar “Boburnoma”da shunchaki san‘atpardoqlik yoki rang-baranglik sifatida emas, balki asar kompozitsiyasini mukammallashtirish, shoir tuyg‘ular olamining dardli lahzalarini aniq va ta‘sirli tasvirlash, mazmun va shaklini boyitishga xizmat qilgan.

“Boburnoma” kompozitsiyasida biron-bir voqea munosabati bilan keltirilgan maqollarning o‘rni ham o‘ziga yarasha. Asarda turli voqealar bayon etilar ekan, fikrni yanada aniq va ta‘sirli berish uchun maqollardan keng foydalaniladi. Buning bir ahamiyati o‘sha tasavvurni kuchaytirmoq bo‘lsa, ikkinchi ahamiyati o‘zbek xalqi yaratgan maqollarning yoshi to‘g‘risidagi tushunchamizni kengaytiradi. “Boburnoma” matnida juda ko‘p maqollar, hikmatli so‘zlar ishlatilganligi haqida adabiyotshunos olim V.Zohidov shunday degan edi: “Bobur ularni muvaffaqiyatli

---

<sup>40</sup> Адизова И. “Бобурнома”даги шеърлий парчалар // Моҳият, 2012. – Б.3-4.

ravishda tanlaydi, predmetning mohiyati va katta ijtimoiy masalalar bilan bog'laydi. Shunday qilib, ulardan ko'pincha, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim xulosalar chiqaradi"<sup>41</sup>. Asar matnida o'zbek va fors tillarida jami 20 ga yaqin maqol qo'llanilgan bo'lib, ushbu maqollar asar kompozitsiyasida muallif tomonidan o'z o'rnida qo'llanilgan. Xususan, "Boburnoma" asarining "To'qqiz yuz sakkizinchi (1502-1503) yil voqealari" bayonida "Mag'lub safga bir "Hay!" so'zi kifoyadir" maqoli qo'llaniladi. Bu maqol Boburning quvg'inda yurgan, bir o'zi dushman qo'lida asir tushib, o'lishiga bir bahya qolgan paytdagi vaziyatini ifodalash maqsadida aytilgan<sup>42</sup>.

"Boburnoma"ga Bobur o'zining bir necha maktublarini ham kiritgan. Ular o'zbek adabiyotidagi xat badiiy shaklining namunasi sifatida ahamiyatlidir. Yana bu xatlarda bayon qilingan fikrlar, o'gitlar umumtarbiyaviy mazmunda ekani bilan ham muhim. Shuningdek, asar kompozitsiyasida ham alohida ahamiyatga ega. Maktub janrini o'rgangan olim X.Abdulxamidova badiiy asardagi maktublarni 4 ta mazmuniy guruhga bo'ladi:

- 1) ishqiy maktublar;
- 2) oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maktublar;
- 3) diplomatik maktublar;
- 4) ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi maktublar<sup>43</sup>.

"Boburnoma"da Humoyunga bitilgan ikki xat to'laligicha keltirilgan<sup>44</sup>. Bu xatlarning mazmuni ham, shakli ham X.Abdulxamidova tomonidan qilingan maktublar tasnifining ikkinchi guruhiga mansub, chunki asarda keltirilgan maktub otaning farzandiga yo'llagan maktubi bo'lib, juda ibratlidir. "Boburnoma" asarida maktublar biror maqsadsiz keltirilmaydi. Xususan, oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maktublar asar kompozitsiyasida oilaviy muhit tasvirini yoritishga, obrazlar munosabatining sof tasvirlanishiga xizmat qilgan. Bobur bu xatlar orqali ayrim hodisalardan o'quvchini boxabar qiladi, ularga o'z munosabatini bildiradi. Shuningdek, asarda keltirilgan xatlar birinchi navbatda, o'sha davr voqealari, qahramonlar xarakteri haqida ma'lumot bersa, ikkinchi navbatda, Bobur hayotining yorqin nuqtalarini ochishga, uning xarakter-xususiyatlarini belgilashga yordam beradi.

Muallif "Boburnoma" kompozitsiyasida voqealar zanjirini mustahkamlashda va qahramonlar ruhiyatini ochib berishda tush motividan o'rinli foydalangan. Asardagi ikki voqeaning sababi tush bilan izohlanadi. Birinchi tush Boburning Samarqand taxtini olish voqeasi bilan bog'liq. Ikkinchi tush voqeasi bevosita Bobur hayotining saqlab qolinishi bilan bog'liqdir. Tush motivi bilan bog'lab kelajakni bashorat qilish, hodisalarni oldindan ko'ra bilish xususiyati hukmdor shaxsni gavalantirishda muhim vazifani bajaradi. "Boburnoma" tipidagi asarlarda tush motividan mukammal obraz yaratishda, qahramonning ichki kechinmalarini,

<sup>41</sup> В.Зоҳидов. Бобурнинг фаолияти ва адабий-илмий мероси. "Бобурнома". – Тошкент, 1960. – Б.25

<sup>42</sup> Заҳириддин М. Б. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.34.

<sup>43</sup> Abdulxamidova X. Adabiyotshunoslikda maktublar genezisi va badiiy-estetik funksiyasi. – Farg'ona, 2025. – B.37.

<sup>44</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.243-244.

ruhiy olamini ochib beruvchi psixologik vosita sifatida foydalanilgan. Tushdagi ruhiy kechinma ta'birning haqiqatga aylanishi tasvirlangan.

